

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**


G.Sh.Rixsiyeva


2025-yil “30” *iyun*

**MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI**

**FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200000	– San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	230000	– Tillar
Mutaxassislik:	70230101	– Lingvistika (sharq tillari bo‘yicha)

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  X.V. Mirzaxmedova

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi boshlig'i:  N.B. Xodjaeva

ARM boshlig'i

 M.M. Yuldasheva

<b>Fan/modul kodi</b> MNM1206	<b>O'quv yili</b> 2025/2026	<b>Semestr</b> 1	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI	72	108	180
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – magistrant-talabalarda sharq tillari ichki tizimiga xos tarkibiy qismlarini tadqiq etishda kuzatilayotgan nazariy muammolarni bayon etib umumlashtirish orqali yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p><i>Fanning vazifasi</i> - talabalarga sharq tillarini ilmiy o‘rganish metodlari, xususan, fonetika, morfemika, morfologiya va sintaksis bo‘limlariga oid tushuncha va birliklarini nazariy jihatdan anglab olish hamda til matnlari asosida bunday hodisalarni tahlil qila olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yuqorida sanab o‘tilgan sohalardagi ilmiy tadqiqotlardan xabardor bo‘lishi, ularni qo‘llay bilishi;</li> <li>- hozirgi sharq tillarining turli dolzarb masalalariga oid asarlarni tadqiq eta olishi;</li> <li>- ilmiy tadqiqotlar natijalarini o‘qituvchilik faoliyatida ishlata bilish malakasiga ega bo‘lishi;</li> <li>- ushbu dolzarb muammolarga oid o‘quv dasturlarini tuza bilish hamda darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yarata olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.</li> </ul> <p style="text-align: center;"><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</b></p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro‘yxatga kiruvchi <b>Harvard University</b> (QS 3, THE 3, ARWU 1) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://scholar.harvard.edu/files/adam/files/syllabus_introduction_to_linguistics_jumbo.pdf">https://scholar.harvard.edu/files/adam/files/syllabus_introduction_to_linguistics_jumbo.pdf</a></p>			

## **II. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

### **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **1-mavzu. Fan maqsadi, vazifalari, mazmuni va mohiyati**

Asosiy sharq tilining tarixiy va hozirgi holatiga umumiy tavsif; tilning tarixiy rivojlanishidagi asosiy muammolar; asosiy sharq tili va boshqa tillardagi manbalardagi asosiy yo'nalishlar.

#### **2-mavzu. Asosiy sharq tilini tadqiq etishning asosiy metodlari**

Asosiy xorij tilni tadqiq etishning asosiy metodlari va metodologiyasi masalalari, sintez va analiz tushunchalari, komponent va qiyosiy tahlil hamda shuningdek, sinxron va diaxron aspektdagi tadqiqotlar masalalari va tadqiq etish usullarining tasnif va tavsiflari.

#### **3-mavzu. Asosiy sharq tilining fonetik tizimi masalalari**

Unli va undoshlar tasnifi masalalari, asosiy xorijiy tildagi fonetik o'zgarishlar turlari, ularning namoyon bo'lish yo'llari, oldfonologiya tamoyillariga oid masalalar.

#### **4-mavzu. Asosiy sharq tilining morfemikasiga doir masalalar**

Leksema shakllanuvchanlik, morfema shakllantiruvchanlik belgisiga ega. Nomustaqillik tabiati va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni morfema deb atashga olib kelgan. Morfemaning nutqiy ko'rinishi qo'shimcha deyiladi. Morfemalarning funksional-semantik tasnifi. Morfema funksional-semantik xususiyatiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi. Morfema - so'zning eng kichik ma'noli qismi. Ko'makchi morfemaning vazifasiga ko'ra 2 xil bo'lishi. So'z yasovchi morfemalar - asosga qo'shillib, yangi ma'no hosil qiluvchi qo'shimchalar. Shakl yasovchi morfemalar - asosga qo'shillib uning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklash vazifasini bajaruvchi qo'shimchalar.

#### **5-mavzu. Asosiy sharq tilining morfologik sathlari**

Sharq tilining morfologik belgilari, morfologiya tushunchalari, asosiy xorijiy tildagi affikslar spetsifikasi. So'z turkumlari, ularga xos grammatik ma'nolarni, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalar, bu kategoriyalarni yuzaga keltiruvchi grammatik shakl va grammatik ma'nolar.

#### **6-mavzu. Asosiy sharq tilidagi so'z turkumlarini tasniflashning asosiy tamoyillari**

So'z turkumlariga tasniflash tamoyillari, ularning tarkibi, turkumlarga ajratish va inson nutqida yuz beradigan leksik, morfologik muammolarni bartaraf etish samaradorligi.

#### **7-mavzu. Asosiy sharq tilidagi mustaqil so'z turkumlari (ot va fe'l)ni tasniflashning asosiy tamoyillari**

Ot va fe'l kabi so'z turkumlarini tasniflashdagi asosiy yondashuvlarning yuzaga kelish sabablari o'rganiladi.

#### **8-mavzu. Asosiy sharq tilidagi mustaqil so'z turkumlari (son, olmosh va ravish)ni tasniflashning asosiy xususiyatlari**

Bunda mustaqil soʻz turkumi qatoriga mansub boʻlgan son, olmosh, ravish kabi soʻz turkumlariga xos asosiy belgilar va shuningdek, mustaqil soʻz turkumlariga doir asosiy muammoli masalalar tahlil etildi.

#### **9-mavzu. Yordamchi soʻz turkumlariga oid qarashlar**

Bunda morfologik, leksik, struktur, funksional, sintaktik, stilistik tahlillar, maydon nazariyasi kabi masalalar atroflicha oʻrganiladi.

#### **10-mavzu. Asosiy xorijiy til leksikologiyasi masalalari**

Leksikaga nisbatan taxliliy usul tariqasida bu yerda ham morfologik-derivatsion, va semasiologik qonuniyatlarni ochib berish imkonini beradigan umumiy struktural-statistik usul tanlab olindi.

#### **11-mavzu. Semasiologiya masalalari**

Semantik valentlik. Semasiologiya va semantika terminlari. Soʻz va leksema atamaları, ularning munosabati. Leksema va semema. Leksik-semantik variantlar.

#### **12-mavzu. Frazeologik birliklar masalasi**

Zamonaviy frazeologiya nazariyasi - frazeologiya va frazeologizmlar, idiomatika va idioma. Eng koʻp tarqalgan va juda koʻp marotaba ishlatilgan atama bu frazeologik birlik atamasi, chunki bu atama frazeologik birlikning tilning sistemasiga boʻlgan munosabatini koʻrsatadi.

#### **13-mavzu. Asosiy sharq tili stilistikasi masalalari**

Tilshunoslikning til uslublarini tadqiq etuvchi, tilning leksik frazeologik, fonetik, morfologik, soʻz yasalişi va sintaktik sathlarda sinxroniya va diaxroniya nuqtai nazaridan funksional qatlamlanishining mohiyati.

#### **14-mavzu. Nutq stilistikasi yoki tilning vazifadosh uslub turlari: a) soʻzlashuv uslubi; b) rasmiy uslub**

Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bagʻishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistikaning yozma turiga kiradi. Ogʻzaki publitsistikaga kundalik voqealar axboroti, radio va televideniya chiqayotgan sharhlovchilar va boshlovchilarning nutqlari mansub.

#### **15-mavzu. Ilmiy uslub. Publitsistik uslub. Badiiy uslub**

Ilmiy uslub ilmiy tadqiqotlar uslubidir. Bu stil fan, texnika sohasida yaratilgan asarlarda qoʻllaniladi. Shunga koʻra u bir necha xilga boʻlinadi: ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ommabop, ilmiy-oʻquv, ilmiypublitsistik va ilmiy-hujjat usublari.

#### **16-mavzu. Asosiy sharq tili sintaktik qurilmalari (konstruksiyalar)**

Asosiy xorijiy tilning sintaktik qurilishiga oid umumiy maʼlumotlar, sintaktik qurilmalar, soʻz birikmasi, sintaktik birliklar.

#### **17-mavzu. Sintaktik aloqa turlari masalalari**

Soʻz birikmasida soʻzlarning oʻzaro birikish usullari. Tobe soʻzning hokim soʻzga biron kelishik yordamida, hokim soʻzning esa tobe soʻzga

muayyan vosita orqali birikuvi . Tobe so‘zning hokim so‘zgakelishiklari yoki ko‘makchilar bilan birikuvi. Kelishikli va ko‘makchili boshqaruv.

### **18-mavzu. Gap sintaksisi**

Asosiy sintaktik birlikning tuzilishiga ko‘ra tiplari, sodda gap, qo‘shma gaplar, gap turlarini shakllantiruvchi grammatik vositalar tahlili tadqiq etilib, atroflicha o‘rganiladi.

#### **II.1. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

*Mutaxassislikning nazariy masalalari fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Sintez va analiz tushunchalari va bularning sharq tillariga bo‘lgan munosabatlari.
2. Fonetik o‘zgarishlar turlari.
3. Morfemika va morfologiya tushunchalarining tadqiq etilishidagi ahamiyati.
4. So‘z turkumlariga xos tipologik va genetik xususiyatlari
5. Mustaqil so‘z turkumlari.
6. Ort ko‘makchilarning sharq tillardagi o‘rni.
7. Yordamchi so‘z turkumlari.
8. Leksikologiya asoslari va muammolari.
9. So‘zning bosh va ko‘chma ma‘nolari.
10. Asosiy sharq tilining asosiy stilistik jihatlar.
11. Asosiy sharq tilining tilshunoslik atamaları.
12. Asosiy sharq tilining sintaktik qurilmalari va birliklari.
13. Unli va undoshlar tasnifi masalalari.
14. Asosiy xorijiy tildagi fonetik o‘zgarishlar turlari.
15. Fonologiya tamoyillariga oid masalalar .
16. Asosiy sharq tilining morfologik belgilari.
17. Asosiy xorijiy tildagi affiksalar spetsifikasi.
18. Asosiy sintaktik birlik - gapning tuzilishiga ko‘ra tiplari.
19. Gap turlarini shakllantiruvchi grammatik vositalar.
20. Ot va fe‘l kabi so‘z turkumlarini tasniflashdagi asosiy yondashuvlarning yuzaga kelish sabablari.
21. Sharq tillaridagi mustaqil so‘z turkumlari (son, olmosh va ravish)ni tasniflashning asosiy xususiyatlari.
22. Son, olmosh, ravish kabi so‘z turkumlariga xos asosiy belgilar.
23. Mustaqil so‘z turkumlariga doir asosiy muammoli masalalar.
24. Yordamchi so‘z turkumlarini tahlil etishdagi asosiy yondashuvlar.
25. Sharq tillari uslublari
26. So‘zning bosh va ko‘chma ma‘nolari.
27. Omonimiya, sinonimiya hodisalari.
28. Asosiy sharq tilining derivatologiyasi masalalari
29. Denotativ va konnotativ ma‘nolar.

30. Uzuallik va okkazonallik tushunchalari.
31. Asosiy sharq tilining stilistik jihatlar.
32. Asosiy sharq tilining lug'aviy qatlami.
33. Leksikaga nisbatan morfologik-derivatsion, ha semasiologik qonuniyatlarni ochib berish imkonini beradigan umumiy strukturual-statistik usullar.
34. Asosiy sharq tilining lingvistik atamaları. Atamashunoslik tarixi,
35. Asosiy xorijiy tildagi sintaktik qurilmalar.
36. Gap turlari. Sintaktik qurilmalar, so'z birikmasi, sintaktik birliklar.

### III. Mustaqil ta'lim\*

#### III.1. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

“Mutaxassislikning nazariy masalalari” fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sintez va analiz tushunchalari
2. Komponent tahlil uslubi.
3. Qiyosiy tahlilning sharq tillariga bevosita aloqadorligi va mohiyati.
4. Tadqiq etish usullari tavsiflari.
5. Asosiy sharq tillarida fonetik o'zgarishlar turlari.
6. Morfemika va morfologiya tushunchalarining Ushbu tillarning tadqiq etilishidagi ahamiyati.
7. So'z turkumlariga xos tipologik va genetik xususiyatlar.
8. Mustaqil so'z turkumlari.
9. Ort ko'makchilarning asosiy sharq tillaridgia o'rni.
10. Yordamchi so'z turkumlari.
11. Leksikologiya asoslari va muammolari.
12. So'zning bosh va ko'chma ma'nolari.
13. Ushbu tillarning asosiy stilistik jihatlar.
14. Asosiy sharq tillarining tilshunoslik atamaları.
15. Asosiy sharq tillarining sintaktik qurilmalari va birliklari.
16. Asosiy sharq tillarida qo'shma gap muammolari.
17. Sintaktik aloqa turlari.
18. Ushbu tillarning gap tarkibidagi bosh va ikkilamchi bo'laklari.
19. Gapni tasniflash muammolari.
20. Asosiy sharq tillarida gapning modallikka ko'ra turlari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

\* *Izoh: Mustaqil ta'lim mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin.*

3.

*Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant-talaba:*

- o'qitilayotgan sharq tilida yaratilgan maxsus adabiyot ustida ishlash, matnning fonetik, fonetik tizimning davriylik masalasi, leksik-semantik,

	<p>grammatik, uslubiy jihatlar va soʻz yasalishi masalalari; matnning sintaktik xususiyatlari va qoidalari haqida <i>tasavvurga ega boʻlishi</i>;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- matnda qoʻllanilgan lugʻat tarkibi, lugʻat tarkibining genetik asoslari; soʻzlarning maʼno xususiyatlari; leksik birliklarning morfologik tadqiqi;</li> <li>- matnda qoʻllanilgan iboralar, maqol va boshqalarga xos sintaktik qurilmalar; ijodkor uslubi masalasi, ijodkor uslubining oʻziga xosligi; adabiy til uslublari va ularning matndagi koʻrinishi; matn talabi bilan til uslublarning tanlanishini tushuna olish <b>bilishi va ulardan foydalana olishi</b>;</li> <li>- matn tilining fonetik asoslari, fonetik tizimning davriylik masalasi; matnda qoʻllanilgan lugʻat tarkibi, lugʻat tarkibining genetik asoslari; soʻzlarning maʼno xususiyatlari; leksik birliklarning morfologik tadqiqi; soʻz yasalishi masalalari yuzasidan <i>koʻnikmalariga ega boʻlishi</i>;</li> <li>- matnning sintaktik xususiyatlari; matnda qoʻllanilgan iboralar, maqol va boshqalarga xos sintaktik qurilmalar; ijodkor uslubi masalasi, ijodkor uslubining oʻziga xosligi; adabiy til uslublari va ularning matndagi koʻrinishi; matn talabi bilan til uslublarning tanlanishini tushuna olish <b>malakasiga ega boʻlishi kerak</b>.</li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>V. TAʼLIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• maʼruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa boʻlib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni toʻla oʻzlashtirish, tahlil natijalarini toʻgʻri aks ettira olish, oʻrganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat boʻyicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VII. ASOSIY VA QOʻSHIMCHA OʻQUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent. 2020.</li> <li>2. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent. 2016</li> </ol>

3. Primov A., X.Qodirova. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Toshkent. 2019

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2006
5. Тимерханова Н. Н.Виды лингвистического анализа по русскому языку в вузе: учебно-методическое пособие. – Ижевск: Изд-во «Удмуртский университет», 2011

#### **Scopusdan maqolalar**

1. Akhmedova D.R., Mubarakova D.A., Khodjaeva N.B., Yunusova N.K., Umarova M.A., Khamidova V.S. Development of distance education in XXI century: Challenges and opportunities // *Educational Administration Theory and Practice*, Vol 30 (6), 869-873, Doi: 10.53555/kuey.v30i6.5373  
<https://www.scopus.com/soureceid/21101039079>

#### **Axborot manbalari:**

<http://www.philology.ru/>  
<http://www.sil.org/>  
<http://yazykoznanie.ru/>  
<http://www.lingling.ru/>  
[www.omniglot.com](http://www.omniglot.com)  
<http://www.linguistlist.org/>

7. Fanning o'quv dasturi "Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti" oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 202\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_ dagi \_\_\_ -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 202\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_ dagi \_\_\_ -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ul:**

Abdurahmonova M.H. – Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi professori, filologiya fanlari nomzodi

9.

**Taqrizchilar:**

Muhibova U.U. – Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi  
professori, filologiya fanlari doktori

Nurmatov S.S. – Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi dotsenti,  
filologiya fanlari doktori

del